



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:6

## TA'LIMDAGI IMTIYOZLAR VA IMKONIYATRLAR

**Yo'ldashova Mashhura Jo'rabek qizi,**  
Alfraganus University Iqtisodiyot tarmoqlari  
va sohalari fakulteti talabasi

**Tuychiyev Alisher Jo'rayevich,**  
Ilmiy rahbar Iqtisodiyot fanlari professori

**Annotatsiya.** Hozirda davlatimiz tomonidan ta'limga katta e'tibor qaratilgan bo'lib o'qish istagi bor yoshlar uchun yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabusslari ta'lim sohasida ko'pkab imkoniyat eshiklari barlla ochib qo'yilgan ayniqsa xususiy ta'limga bo'lgan e'tibor har bitta yosh uchun o'qish imkoniyatini yanaham kuchaytimoqda. Til o'rganmizchi bo'lgan ammo moddiyatida muamollari bor yoshlar uchun ham ko'plab loyihibalar tashkil etilmoqda. Jumladan yoshlar ishlari agentligi tomonidan yo'lga qo'yilgan ibrat loyihasida mingdan ziyod yoshlar bepul va sifatli ta'lim olyapti biz ushbu maqolada ta'limga imkoniyatlar va imtiyozlar haqida gaplashamiz.

**Kalit so'zlari:** Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, Ta'lim, imkoniyat, yoshlar, yangiliklar, bepul ta'lim

**Аннотация.** В настоящее время в нашей стране большое внимание уделяется образованию, и инициативы нашего президента Шавката Миромоновича Мирзиёева открыли множество дверей возможностей в сфере образования для молодежи, желающей учиться, особенно на частное образование. доступ к чтению для каждого молодого человека. Многие проекты организуются для молодых людей, которые хотят выучить язык, но имеют финансовые проблемы. В частности, более тысячи молодых людей получают бесплатное и качественное образование в рамках образцового проекта Агентства по делам молодежи. В этой статье мы поговорим о возможностях и преимуществах в сфере образования.

**Ключевые слова:** Шавкат Миromonovich Mirziyoyev, Образование, возможности, молодежь, новости, бесплатное образование

**Annotation.** Currently, our country pays great attention to education, and the initiatives of our president Shavkat Miromonovich Mirziyoyev have opened many doors of opportunity in the field of education for young people who want to study, especially for private education. The focus is on increasing access to reading for every young person. Many projects are being organized for young people who want to learn a language but have financial problems. In particular, more than a thousand young people are receiving free and high-quality education in the exemplary project launched by the Youth Affairs Agency. In this article, we will talk about opportunities and benefits in education.

**Keywords:** Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, Education, opportunity, youth, news, free education.

### Kirish

Hozirgi kunda yurtimizda yoshlar ta'lim olishi uchun davlat tomonidan bir nechta imkoniyatlar va imtiyozlar yaradib qo'yilgan jumladan:

Yurtimiz oliy ta'lim muassasalarida o'qish uchun stipendiyalar va grantlar mavjud. Bu, o'qish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashda yordam beradi. Ta'lim dasturlari va sohalarining kengligi O'zbekistonda katta e'tibor qilinadi. Bu esa o'quvchilar o'zlariga qiziqishlari va talentlari bo'yicha tanlov qilishlari mumkin.



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:6

Yoshlar uchun o'quv markazlari va dasturlari kuchaytirish maqsadida mahalliy hokimiyatlar yoki ma'muriyatlar tomonidan ochiladi. Bu markazlar va dasturlar yoshlarga qiziqishlarini rivojlantirish, moddiy yordam ko'rsatish va ta'limga osonlashtirishga yordam beradi. O'zbekiston hukumati ta'limga sohasida yangiliklarga va texnologiyalarga katta e'tibor qaratmoqda. Bu esa o'quvchilar uchun yangi metodika va texnologiyalar orqali o'qish imkoniyatlarini osonlashtiradi. Barcha bu imkoniyatlar va imtiyozlar O'zbekistondagi yoshlarga o'zlarini rivojlantirish uchun yordam beradi.

## Asosiy qism

O'zbekiston yoshlar mamlakati deb atalgan davlatimizning yoshlar bilan shug'ullanish sohasida katta e'tibor berishi muhimdir. Bu, yangi avlodning rivojlanishi va mamlakatning mustaqillik va tinchlikni ta'minlashida katta ahamiyatga ega. Siz yoshlar ta'limga sohasidagi faoliyatningizni o'r ganuvchi sifatida shug'ullanib kelibsiz. Bu maqolada aytilgan imkoniyatlar va qadam yoshlar uchun muhimdir:

Yoshlarga oid davlat siyosati: O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonuni yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishga asos beradi. Bu qonun hamda boshqa huquqiy hujjatlar yoshlarga ta'limga rivojlanishlarini kafolatlash, ularning huquq va iste'dodlarini himoya qilishga oiddir.

Bepul umumiyligi ta'limga: O'zbekiston Konstitutsiyasining 41-moddasi yoshlar uchun bepul umumiyligi ta'limga olish huquqini kafolatlashda muhim rol o'yнaydi. Bu, ularning bilim va rivojlanishga huquqiy ta'minitdir. Yoshlar uchun maxsus ta'limga-tarbiya dasturlari: Prezidentlik maktablari, Temurbeklar maktabi va boshqa maxsus ta'limga-tarbiya dasturlari yoshlarga zamonaviy ta'limga-tarbiya tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga egadir.

Shavkat Mirziyoyevning qo'llab-quvvatlash siyosati: Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev yoshlarni qo'llab-quvvatlash siyosatini murakkab ravishda amalga oshirishga qaratilgan. Bu siyosat, yoshlarning huquqlarini himoya qilish, rivojlanishlarini ta'minlash va qonunlarga ishonchlarini oshirishga qaratilgan. Yangi yoshlar siyosatining shakllanishi va rivojlanishida davlat rahbarining shaxsiy ishtiropi juda muhimdir. Bu, yangi avlodning o'zlarini rivojlantirish va mamlakatning mustaqillik va tinchlikni ta'minlashga qaratilgan urg'udir.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar uchun imkoniyat va imtiyozlar hayotga izchillik bilan tatbiq etilmoqda. Bu, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasining bir qismidir. Quyidagi muhim nuqtalarni eslatib o'tamiz:

**Ta'limga:** Yoshlarimizga ta'limga olish imkoniyati yuqori darajada e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tartibi yo'lga qo'yilib, tashkil etilgan o'quv kurslarini tamomlagan



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:6

har bir bitiruvchi uchun nodavlat ta'lim tashkilotlariga sarflangan xarajatlarning 70 foizi davlat tomonidan kompensatsiya qilinishi yo'lga qo'yildi.

**Imtiyozlar:** Yoshlarimiz uchun imtiyozlar yaratilgan. Misol uchun, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga xotin-qizlarni o'qishga qabul qilish uchun 30 foiz maqsadli kvota ajratilgan. Yoshlarimizning o'zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyatlar yaratilmogda. Regional Imkoniyatlar: Yoshlarimizni o'zining potentsialini o'rganish uchun regional hudud imkoniyat va infratuzilmasi yaratilgan. Oliy ta'lim qamrovi va hududning professional-kasbiy ehtiyojlarini inobatga olish muhim o'rinni tutadi.

O'zbekistonda so'nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzlucksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

Ushbu islohotlar uchun davlat budgetidan xarajatlar so'nggi 6 yilda 4,3 baravarga oshirildi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 2016-yildagi 5 211 tadan 2021-yilga kelib 19 316 taga, maktablar soni 9 719 tadan 10 289 taga yetkazildi, 11 yillik majburiy maktab ta'limi qayta tiklandi, maktab o'qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi. Ta'lim sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb 4 baravarga oshirildi, OTM soni 70 tadan 191 taga yetkazildi, oliy ta'limdan keyingi ta'limning ikki pog'onali tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (Doctor of Science) tizimi joriy etildi.

Ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim bilan qamrov darjasini 27,7 foizdan 67 foizga, maktablardagi malakali oliy ma'lumotli o'qituvchilar ulushi 81,8 foizdan 87,8 foizga, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darjasini 9 foizdan 38 foizga yetkazildi.

Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta'limda qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan 80 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTlarni tashkil etish, xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rnini yaratish, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo'yicha yo'lga qo'yilgan ijobiliy amaliyotni 2023/2024 o'quv yilidan qolgan barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etish ko'zda tutildi. Shuningdek, oliy ta'limda qamrov darjasini 50 foizga, nodavlat OTMlar sonini kamida 50 taga yetkazish belgilab olindi.

Yuqorida keltirilgan islohotlarni yanada mustahkamlash va bardavom bo'lishini ta'minlash, konstitutsiyaviy qonunchilikda yoshlarning uzlucksiz ta'lim olishga bo'lgan imkoniyatlarini mustahkamlashni taqozo etmoqda.



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:6

O‘zbekiston ta’lim tizimining so‘nggi yillar davomida o‘zaro aloqador va integratsiyalangan ta’lim va tarbiya tizimini isloh etishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, bu jarayonning ilmiy metodologik o‘zgarishlari va ularning muhimligi tahlil qilinishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan reformatsiyalarni ta’lim sohasidagi islohotlar to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqotlarni taqdim etish maqsadida o‘rganilgan.

2026-yilga qadar kutilayotgan islohotlar juda ambitsiyali va o‘zgaruvchanliklarga olib kelishni maqsad qilgan. Maktabgacha ta’limning sifatini oshirish, oliy ta’lim muassasalarining ko‘rsatilishi, malakali kadrlarni tayyorlash, va o‘quv jarayonida inkluzivlikni ko‘paytirish uchun ko‘plab qadam tashlandi. Bu qadam avvalgi islohotlarning muvaffaqiyatli davom etishini ta’minlash, shuningdek, ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan maqsadlarga qaratilgan.

Davlat rahbari forumga O‘zbekiston yoshlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi choralar bilan kelganini ta’kidladi. Uning aytishicha, mamlakatda zamonaviy kasb va bilimlarni egallash imkoniyatlari kengaytiriladi.

«Har safar sizlar bilan uchrashuvga tayyorgarlik ko‘rayotganimda, meni bir savol chuqur o‘ylantiradi. Ertangi kunimiz egalari hisoblangan yoshlarimizning yanada barkamol bo‘lishlari uchun yana qanday shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratib berishimiz lozim?», — dedi u.

Uning so‘zlariga ko‘ra, endilikda 14–17 yosh oralig‘idagi 3 mln nafarga yaqin o‘g‘il-qizlarga ham «Yoshlar daftari»da ko‘zda tutilgan imtiyoz va yengillikkardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Xususan, unda nazarda tutilgan imtiyozlar amaldagi 11 tadan 25 taga ko‘paytiriladi.

Davlat rahbarining so‘zlariga ko‘ra, ushbu daftarga kiritilgan yoshlarga zamonaviy kasblar, axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni o‘rganishi uchun har biriga oyiga 1,2 mln so‘mdan subsidiya beriladi.

Til o‘rganish istagi bo‘lgan ammo moddiyatida muamosi bo‘lgan yoshlar uchun ham ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yo‘lga qo‘yilgan “Ibrat” loyihasi hozirda ko‘plab yoshlar qalbiga kirib bora oldi.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 2022-yil noyabr oyida tashkil etilgan Ibrat Farzandlari loyihasi xorijiy tillarni bepul, soda va kreativ usulda o‘rgatishini maqsad qilgan. Loyiha doirasida professional ustozlar tomonidan 13 ta til bo‘yicha 22 turdagि tizimli va noldan boshlangan darslar majmuasi ishlab chiqarilmoqda. Ibrat Farzandlari bilan turli tillat bo‘yicha bilimlarni qisqa muddat ichida xoxlovchilar o‘zi uchun qulay bo‘lgan yerdan turib egallashlari mumkin. Loyiha barcha uchun teng ravishda istalgan joyda istalgan vaqtda bepul til o‘rganish imkonini beradi.



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:6

Ibrat Farzandlari qisqa vaqt ichida You Tube'da qariyb 320 mingdan ortiq o'ragnuchviga ega bo'la oldi. Sahifada e'lon qilingan darslarning umumiy ko'rinishlar soni 12 mln dan oshadi. Raqamlardan ko'rinish turibdiki, O'zbekistonda yoshlar o'rtasida chet tilini rivojlantirish muhim o'rin tutadi va bu yo'nalishlarda bepul onlays-darslarga talab yuqori. Loyiha chekka hududlardaham imkoniyati cheklangan yoshlar uchun beminnta hizmat qilib kelmoqda.

## Xulosa

Xulosa shundaki o'z farzandlarini sevib ardoqlaydigan va yoshlarni har doim birinchi o'rinda qo'yadigan Jannat makon yurt farzandi bo'lishning gashti bo'lakcha. Shunday imkoniyatlar yaratib berilmoqdaki bizdan hech nima talab qilnmaydi shuning uchun ham biz ysohalr bunday imkoniyatlar qadiriga yetib har bitta imkoniyat va imtiyozlardan mazmunli foydalanishimiz va yurtimiz uchun fidoiy bo'lishimiz kerak. O'z yurtini sevgan va uni ko'klarga ko'targan inson hechqachon kam bo'lmaydi. Albatta biz yoshlar bu ishoncha va imkoniyatlarni qadriga yetib yurtimiz bayrog'ini jahon miqqiyosida ko'klarga ko'tarishimiz kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/05/ibrat-academy/>
2. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-yoshlariga-yaratilayotgan-yangi-imkoniyatlar-renessans-poydevori>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/07/01/subsidy/>
4. [https://www.google.com/search?q=yoshlarga+ajratilgan+imtiyoz&rlz=1C1GCEA\\_en\\_UZ1029UZ1029&oq=yoshlar&aqs=chrome.0.69i59j69i57j69i59l2j69i60l3j69i61.8932j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8](https://www.google.com/search?q=yoshlarga+ajratilgan+imtiyoz&rlz=1C1GCEA_en_UZ1029UZ1029&oq=yoshlar&aqs=chrome.0.69i59j69i57j69i59l2j69i60l3j69i61.8932j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8)
5. [https://kun.uz/uz/news/2023/09/08/yoshlar-daftariga-kiritilganlar-uchun-5-muhim-imtiyoz-malum-qilindi.](https://kun.uz/uz/news/2023/09/08/yoshlar-daftariga-kiritilganlar-uchun-5-muhim-imtiyoz-malum-qilindi)